

**“Smart bank” AJ
Kuzatuv kengashining
2024 yil 30 yanvardagi
30-01/1-sonli yig‘ilish bayonnomasi
bilan tasdiqlangan**

**“Smart bank” AJ
Boshqaruvining
2024 yil 29 yanvardagi
29-01/1-sonli yig‘ilish qaroriga
4-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: I-50

Sana: 31.01.2024 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
EMISSIYA SIYOSATI**

Toshkent – 2024 yil

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining emissiya siyosati (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi matnlarda Bank deb yuritiladi)ning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati masalalarini muvofiqlashtiradi.

2. Emissiya siyosati – Bankning qimmatli qog‘ozlari muomalaga chiqarish orqali o‘z sarmoyasi va resurs bazasini kengaytirish, shuningdek Bank passivlarini diversifikatsiya qilish orqali o‘z likvidligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar majmuidir.

3. Siyosatda quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish - Bankning birlamchi chiqarilgan aksiyalar joylashtirilgandan so‘ng amalga oshiriladigan aksiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan harakatlari;

anderrayter faoliyati (anderrayting) - emitent va anderrayter (anderrayterlar) o‘rtasidagi shartnomada belgilangan shartlar asosida emitent qimmatli qog‘ozlarini chiqarilishini tashkillashtirish va/yoki kafolatli joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish faoliyati;

yopiq obuna - qimmatli qog‘ozlarni oldindan ma‘lum bo‘lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e‘lon bermagan va reklama kompaniyasi o‘tkazmagan holda joylashtirish;

ochiq obuna - qimmatli qog‘ozlarni soni cheklanmagan investorlar orasida reklamadan foydalangan holda joylashtirish, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarni ommaviy taklif etish orqali joylashtirish;

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar - bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar;

noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlar - emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar tushunchasiga oid bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar;

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri (bundan keyingi o‘rinlarda YADR deb yuritiladi) - ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ro‘yxati;

emitent - emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo‘lgan yuridik shaxs;

koefitsiyentlar tahlili – turli moliyaviy hisobotlar moddalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning turli moddalari o‘zaro munosabatlarini o‘rganishdir;

qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi - depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog‘ozlarga

bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi;

qimmatli qog'ozlarning muomalasi - qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;

qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi (bundan keyingi o'rinlarda risola deb yuritiladi) - emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;

qimmatli qog'ozlar emissiyasi - emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;

qimmatli qog'ozlarning yangi chiqarilishi - aksiyadorlik jamiyatining ilgari chiqarilgan qimmatli qog'ozlari to'liq joylashtirilgandan so'ng nominal qiymatining kamayishi, huquqlarning o'zgarishi, yiriklashtirish yoki maydalashda qimmatli qog'ozlarni paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari;

2-bob. Emissiya faoliyatining maqsadi va strategiyasi

4. Emissiya faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali aholi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini Bankka jalb qilish yo'li bilan Bank kapitalini oshirish va resurs bazasini o'stirish hamda passivlarini diversifikatsiyalash hisoblanadi.

5. Bank emissiya faoliyatining maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi emissiya strategiyalarini qo'llashi mumkin:

uzoq muddatli emissiya strategiyasi, ya'ni uzoq muddatli passivlarni shakllantirish maqsadida muomalaga uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish;

qisqa muddatli emissiya strategiyasi, ya'ni qisqa muddatli passivlarni shakllantirish maqsadida muomalaga qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish;

muddatsiz emissiya strategiyasi, ya'ni aksiyalarni muomalaga chiqarish orqali o'z ustav kapitalini ko'paytirish.

6. Yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini qisqa va uzoq muddatlarga jalb qilish maqsadida Bank o'rnatilgan tartibda qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishi mumkin.

7. Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bo'yicha qaror qabul qilinishidan avval quyidagilar aniqlab olinadi:

qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan asosiy maqsad;

qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan kutilayotgan samaradorlik;

emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq amaliyoti;

emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlar bozori, sarmoyadorlar va ularning

investitsiya dasturlari, bozordagi mavjud talab hamda taklifni o'rganilganligi yoki tahlil etilganligi;

emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlarning muomala davri hamda daromad stavkalarini bankning uzoq va qisqa muddatli kreditlash strategiyalari hamda jalb qilingan resurslardan samarali foydalanish va Bank marjasini hisobga olgan holda belgilanganligi.

8. Muomalaga chiqarilayotgan har qanday qimmatli qog'oz turi bo'yicha emissiya dasturi puxta va konservativ asosda ishlab chiqilishi hamda unga nisbatan mo'tadil siyosat qo'llanishi lozim.

9. Bank muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarni diversifikatsiya qilish orqali turli xatarini kamaytiradi hamda muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni diversifikatsiyalash orqali Bank passivlaridagi xavf-xatarlarini boshqarish orqali pasaytiradi.

3-bob. Muomalaga chiqarilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarning turlari va shakllari

10. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishga haqlidir:

aksiya;

obligatsiya;

depozit (omonat) sertifikatlari;

qimmatli qog'ozlarning hosilalari;

qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar.

11. Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakliga ko'ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanadi.

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari hujjatsiz shaklda chiqariladi.

12. Obligatsiya, depozit sertifikatlari, qimmatli qog'ozlarning hosilalari, veksel kabi qimmatli qog'ozlar muomala muddati cheklangan holda amaldagi meyoriy hujjatlar talablariga muvofiq Bank tomonidan muomalaga chiqariladi. Aksiyalar esa cheklanmagan muddatga muomalaga chiqariladi.

4-bob. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror

13. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish to'g'risidagi qarorda qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

14. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qonun hujjatlariga muvofiq Bankning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

15. Bankning majburiyatlari bajarilishini garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qo‘shimcha ta‘minlanadigan obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda qo‘shimcha ta‘minot bergan shaxs to‘g‘risidagi va ta‘minotning shartlari haqidagi ma‘lumotlar ham ko‘rsatilishi lozim. Ushbu holatda obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to‘g‘risidagi qaror qo‘shimcha ta‘minot bergan shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak.

16. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5-bob. Bank tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlarga qo‘yiladigan talablar

17. Bank aksiyalarini chiqarilishi:

Bank chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi lozim;

Bank aksiyalari faqat pul mablag‘laridan tarkib topadi;

aksiyalarni kreditga, garovga olingan va boshqa jalb etilgan mablag‘lardan foydalangan holda sotib olish taqiqlanadi;

Bank aksiyalari uchun to‘lovlar qonunchilikda ko‘zda tutilgan holatlarda byudjet va byudjetdan tashqari Jamg‘arma mablag‘laridan shakllantirish mumkin.

18. Obligatsiyalar chiqarilishi:

obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o‘z kapitali miqdori doirasida;

keyingi uch yilda rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgandan so‘ng amalga oshiriladi.

19. Bank tomonidan chiqariladigan depozit (omonat) sertifikatlari bo‘yicha o‘rnatilgan talablar:

sertifikatlar blankalar tarzida hujjatli shaklda chiqariladi;

sertifikatni tovarlar oldi-sotdisi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar (ishlar) uchun hisob-kitob qilishda to‘lov vositasi sifatida qo‘llash mumkin emas;

depozit sertifikatlarining oldi-sotdisi va ular yuzasidan summalarni to‘lashga doir pullik hisob-kitoblar naqdsiz shaklda, omonat sertifikatlari bo‘yicha naqdsiz hamda naqd shaklda amalga oshiriladi;

sertifikatlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi;

sertifikatlar qisqa va uzoq muddatga (sertifikat berilgan vaqtdan boshlab sertifikat saqlovchisi sertifikat bo‘yicha depozitni talab qilib olish huquqini qo‘lga kiritish vaqtiga qadar) chiqariladi.

6-bob. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish

20. Bank qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

21. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

yopiq obuna yo'li bilan;

ochiq obuna yo'li bilan.

22. Bank chiqarilayotgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran bir yil ichida tugallashi shart.

23. Bank investitsiya vositachilariga emissiyaviy qimmatli qog'ozlar olinguniga qadar investorni qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror, emissiya risolasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

24. Depozit (omonat) sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. Qimmatli qog'ozlarni o'z vaqtida so'ndirilishi

25. Bank o'zining muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlari hamda ushbu masala yuzasidan vujudga keladigan barcha majburiyatlar yuzasidan o'rnatilgan tartibda javob beradi.

26. Emissiya qilingan hamda qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'oz bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad va qarzning asosiy summasi Bank tomonidan to'liq to'lab berilishi lozim.

27. Emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha Bank amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli zahira fondlarini shakllantirishi mumkin.

8-bob. Qimmatli qog'ozlar likvidligining ta'minlanishi

28. Bank tomonidan emissiya qilinayotgan har qanday qimmatli qog'ozning likvidligi ta'minlanib turilishi lozim.

29. Emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlarning (aksiyadan tashqari) likvidlik darajasini ta'minlash maqsadida qimmatli qog'ozning so'ndirish muddati yetib kelgunga qadar Bank sarmoyador yoki mijoz bilan o'zaro kelishilgan holda o'rnatilgan tartibda uni qaytib sotib olishi mumkin.

30. Qaytib sotib olingan va so'ndirish muddatlari yetib kelmagan qimmatli qog'ozlar (aksiyadan tashqari) Bank tomonidan ikkilamchi savdo amaliyoti orqali bozorda qayta joylashtirilishi mumkin.

31. Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarilishi munosabati bilan vujudga keladigan xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida Bank ularni amaldagi

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta qilishi mumkin.

32. Qimmatli qog'oz bo'yicha real daromadlilik darajasi qimmatli qog'ozning jozibadorligi, bozor bahosining o'sishi hamda moliyaviy bozorning holatiga bog'liqlangan holda o'rnatiladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

33. Bankning tegishli rahbar va xodimlari tomonidan mazkur Siyosatning asosiy yo'nalishlariga to'liq rioya qilinmagan taqdirda ularga nisbatan amaldagi tartib-qoidalarga asosan intizomiy choralar o'rnatilgan tartibda qo'llaniladi.

34. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

35. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.